

O'ZBEKISTONDA MAJBURIYATLAR REESTRI INSTITUTINING HUQUQIY ASOSLARI, UNING IJRO HUJJATI IJROSINI TA'MINLASHDAGI ROLI

I.S.Ziyauatdinov

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18329117>

Annotatsiya. Maqolada zbekiston Respublikasida ijro ishi yuritish tizimini isloh qilishning muhim bosqichi bo'lgan Majburiyatlar reestri institutining huquqiy tabiati va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijro hujjatlarining ijrosini ta'minlashda an'anaviy majburlov choralaridan preventiv va axborot-huquqiy ta'sir vositalariga o'tish zaruriyati hamda xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: majburiyatlar reestri, ijro huquqi, sud hujjatlari ijrosi, qarzdor, ijro samaradorligi, huquqiy institut.

LEGAL FOUNDATIONS OF THE OBLIGATIONS REGISTER INSTITUTION IN UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN ENSURING THE ENFORCEMENT OF ENFORCEMENT DOCUMENTS

Annotation. The article analyzes the legal nature and practical significance of the Obligations Register institution as a key stage in the reform of the enforcement proceedings system in the Republic of Uzbekistan. In the context of the digital economy, the necessity of transitioning from traditional coercive enforcement measures to preventive and information-legal instruments for ensuring the execution of enforcement documents is substantiated, and a comparative analysis of foreign countries' experience is presented.

Key words: obligations register, enforcement law, enforcement of court decisions, debtor, enforcement efficiency, legal institution.

Ishiro ishi yuritish tizimi samaradorligini oshirishda zamonaviy huquqiy mexanizmlardan biri sifatida shakllangan Majburiyatlar reestri instituti xorijiy davlatlar tajribasida qarzdorlarning mol-mulkiy va majburiy holatlari to'g'risida yagona axborot bazasini shakllantirish orqali ijro hujjatlarining real ijrosini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ijro ishi yuritish tizimida majburiyatlar reestri institutining shakllanishi sud hujjatlari va boshqa vakolatli organlar hujjatlarining ijrosini ta'minlashda tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks huquqiy islohotlar natijasida vujudga kelgan bo'lib, mazkur institut joriy etilgunga qadar ijro amaliyotida qarzdorlarning mol-mulkiy va pul majburiyatlari to'g'risida markazlashgan, yagona va ochiq axborot tizimining mavjud emasligi ijro hujjatlarining bajarilish darajasi past bo'lishiga olib kelgan.

O'zbekiston Respublikasida ijro ishi yuritish tizimining tarixiy evolyusiyasi va uning zamonaviy bosqichida "Majburiyatlar reestri" institutining paydo bo'lishi davlatning huquqiy siyosatida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Ijro institutining shakllanishini shartli ravishda uchta bosqichga ajratish mumkin:

Birinchii bosqich (1991–2001 yillar) — ijro tizimining sudlar huzuridagi bo'limlar shaklida shakllanishi;

Ikkinchi bosqich (2001–2017 yillar) — "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va Sud departamentining tashkil etilishi;

Uchinchi bosqich (2017 yildan hozirgacha) — ijro tizimining tubdan isloh qilinishi va Majburiyatlar reestri kabi raqamlashtirilgan institutsional tuzilmalarning joriy etilishi.

O'zbekistonda ijro huquqining rivojlanish tarixida Majburiyatlar reestri institutining alohida huquqiy fenomen sifatida ajralib chiqishi va mustaqil bosqich sifatida namoyon bo'lishi bevosita davlatning ijro intizomini mustahkamlashga qaratilgan strategik islohotlari bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, ushbu institutning konseptual poydevori va amaliy tatbiq etish mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118-son Farmoni qabul qilinishi bilan yangi huquqiy mazmun kasb etdi.

Ushbu Farmon ijro ishi yuritish tizimini "an'anaviy-majburlov" modelidan "raqamli-preventiv" modeliga o'tishida asosiy huquqiy dastak bo'lib xizmat qildi. Mazkur hujjatning qabul qilinishi bilan O'zbekiston ijro huquqi amaliyotida ilk bor ijro hujjatlari bo'yicha majburiyatlarini belgilangan muddatlarda va ixtiyoriy ravishda bajarmayotgan qarzdorlarning markazlashgan, shaffof va tizimlashtirilgan ma'lumotlar bankini yuritish — Majburiyatlar reestri institutiga rasman tamal toshi qo'yildi.

Mazkur institutning joriy etilishi ijro jarayonining nafaqat texnik jihatini, balki uning falsafiy va huquqiy mohiyatini ham o'zgartirdi. Ilgari ijro jarayoni faqat qarzdorning mol-mulkini xatlash va sotish bilan cheklangan bo'lsa, Reestr instituti orqali qarzdorga nisbatan **"iqtisodiy va ijtimoiy izolyatsiya"** choralarini qo'llash imkoniyati tug'ildi. Bu esa, o'z navbatida, qarzdorning fuqarolik muomalasidagi ishbilarmonlik obro'si va iqtisodiy faolligini bevosita ijro intizomiga bog'lab qo'ydi.

Professor M.M. Mamasiddiqov ijro ishi yuritishda qarzdorning nafaqat moddiy aktivlariga, balki uning huquqiy maqomiga ta'sir qilish zarurligini ta'kidlaydi. Jumladan:

"Ijro samaradorligini faqat majburiy xatlov bilan emas, balki qarzdorni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan "noqulay" ahvolga solish orqali ta'minlash mumkin. Majburiyatlar reestri qarzdorning iqtisodiy muomaladan cheklanishini ifodalovchi huquqiy mexanizmdir¹." degan hoyani ilgari suradi.

Ilmiy nuqtai nazardan, ushbu uchinchi bosqichni **"Ijro ishini raqamli transformatsiya qilish davri"** deb atash mumkin. Reestrning joriy etilishi natijasida kutilayotgan asosiy ijobiy natijalar sifatida quyidagilarni ta'kidlash joiz:

- **Ijroning muqarrarligi ta'minlanishi:** Reestrga kiritilgan shaxslarga nisbatan davlat xizmatlaridan foydalanish, bank operatsiyalarini amalga oshirish va xalqaro chiqishlar bo'yicha cheklovlarning tizimli ravishda qo'llanilishi, majburiyatni bajarmaslikning "narxini" oshiradi.

- **Kreditorlar huquqlarining himoyasi:** Potensial investorlar va kontragentlar uchun shaffof ma'lumotlar manbai yaratilib, shartnomaviy munosabatlardagi xavf-xatarlarni (risk management) oldindan baholash imkonini beradi.

- **Ixtiyoriy ijro koeffitsientining oshishi:** Professor M.M. Mamasiddiqov ta'kidlaganidek, "Axborotning ochiqligi qarzdor uchun majburiy ijro choralaridan ko'ra kuchliroq psixologik ta'sir vositasi bo'lib xizmat qiladi".

Shunday qilib, PF-6118-son Farmon bilan asoslangan ushbu institut, O'zbekiston ijro tizimini xalqaro standartlarga (masalan, Germaniyaning Schuldnerverzeichnis yoki Rossiyaning Bank данных исполнителных производств modellariga) yaqinlashtirishda muhim institutsional qadam bo'ldi. Bu bosqich nafaqat ijrochining ishini yengillashtirdi, balki jamiyatda majburiyatlarni bajarishga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning huquqiy mexanizmi sifatida maydonga chiqdi.

¹ Мамасиддиқов М.М. "Фуқаролик процессида ижро иши юритишнинг назарий ва амалий муаммолари". DSc диссертацияси. Тошкент, 2018.

Ilmiy jihatdan yondashganda, Majburiyatlar reestri nafaqat ma'lumotlar banki, balki qarzdorning huquqiy maqomiga ta'sir etuvchi yuridik faktlar majmuidir.

Huquqshunos olim M. Mamasiddiqov o'zining ijro huquqiga bag'ishlangan tadqiqotlarida ta'kidlashicha, "Ijro ishi yuritishda samaradorlikka erishish uchun qarzdorning nafaqat mol-mulkiga, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyasiga ham ta'sir o'tkazish lozim.

Majburiyatlar reestri aynan mana shu vazifani bajaradi²".

Ushbu fikrni davom ettirgan holda, mazkur institutning joriy etilishidan kutilayotgan ijobiy holatlarni bir necha yo'nalishda tahlil qilish mumkin. Birinchidan, bu — **preventiv (oldini oluvchi) ta'sir**. Qarzdorning reestrga kiritilishi uning keyinchalik bank xizmatlaridan foydalanishi, davlat xizmatlarini olishi va xalqaro shartnomalar tuzishida to'siq bo'lishi, uni majburiyatni ixtiyoriy bajarishga undaydi. Ikkinchidan, **tranzaksion xarajatlarning kamayishi**.

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilari o'z kontragentlarining to'lov qobiliyatini reestr orqali tekshirib, bo'lg'usi xavflarni oldindan baholaydilar.

Xorijiy tajribaga nazar tashlasak, Majburiyatlar reestri instituti rivojlangan huquqiy tizimlarda "qarzdorlarning ochiq reestri" shaklida ancha avval shakllangan. Masalan, Estoniyada 2000 yillarning boshida joriy etilgan "Ametlikud Teadaanded" (Rasmiy bildirishnomalar) tizimi orqali qarzdorlar haqidagi ma'lumotlarning ochiqqlanishi ijro hujjatlarining ijro etilish ko'rsatkichini 25% ga oshirgan. Rossiyalik olim V.A. Gureev ta'kidlashicha, "Davlat ijro ishi yuritish tizimida axborot texnologiyalarining roli shundaki, u ijrochining jismoniy harakatlarini minimallashtirib, tizimli cheklovlar orqali majburiy ijroni ta'minlaydi"³.

Mazkur institutni joriy etilishigacha bo'lgan huquqiy asoslardan biri bu - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 martdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4236-son Qaroridir.

Ushbu Qarorga asosan 2019 yil 1 oktabrdan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi ijro hujjatlarining yagona elektron bazasini yuritishi, tegishli ma'lumotlar bazasi joriy etish belgilandi⁴. Bu chora axborot infratuzilmasini markazlashtirish va ma'lumot tizimlaridan voz kechish orqali ijro ishi yuritish samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim chora hisoblanadi.

Yaponiyalik huquqshunos olim M.Deguti ijro hujjatlari samaradorligini qiyosiy-huquqiy tahlil qilar ekan, ijro samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi omil sifatida qarzdor aktivlari haqida yetarli ma'lumotlarning mavjudligini qo'yadi; amalda axborot tarqoq yoki yetarsiz bo'lsa, ijroning samaradorligi pasayadi degan fikrni ilgari suradi, shuningdek, u kompleks (to'liq) ma'lumot - eng samarali chorani tanlash va parallel choralarni muvofiqlashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi⁵.

Xuddi shuningdek, Council of Europe – CEPEJ eksperti Matyo Shardon ham CEPEJ (Yevropa Kengashi) doirasidagi ma'ruzasida ijro jarayonini samarali tashkil qilish uchun qarzdorning xatlab qo'yilishi mumkin bo'lgan aktivlari haqidagi "yagona ko'p-manbali baza" (unique multi-source... database)ni xavfsiz shaklda yo'lga qo'yishni tavsiya etadi⁶.

² Мамасиддиқов М.М. "Фуқаролик процессида ижро иши юритишининг назарий ва амалий муаммолари", Диссертация автореферати, 2018

³ Гуреев В.А. "Исполнительное производство", Учебник, Москва 2022 г, 56 ст.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори <https://lex.uz/docs/4236722>

⁵ Deguchi M. "Comparative Legal Perspective on the Effective Enforcement of Creditors' Rights" Comparative Procedural Law and Justice Part XIII – Enforcement Chapter 2. August 2024.

⁶ Chardon M. The CEPEJ Guidelines on Enforcement. 1^{er} Forum mondial sur l'exécution – 1st Global Forum on Enforcement - Strasbourg – 10 Dec. 2014

Ushbu xorijiy ilmiy yondashuvlar mazmunan shuni ko'rsatadiki, ijro tizimida axborot infratuzilmasining tarqoqligi ijro hujjatlarini bajarishni qiyinlashtirib, ijro samaradorligini pasaytiradi, shu sababli ijro ishi yuritishda qarzdorlar va ularning majburiyatlari haqidagi ma'lumotlarni birlashtiruvchi markazlashgan reestrlar va yagona elektron bazalarni joriy etish ijro tizimini takomillashtirishning ilmiy jihatdan asoslangan va xalqaro amaliyotda o'zini oqlagan muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, 2017–2019 yillarga qadar amal qilgan ijro tizimida sud ijrochilari qarzdor haqidagi ma'lumotlarni banklar, soliq organlari, kadastr, ichki ishlar va boshqa idoralardan alohida so'rovlar orqali olishga majbur bo'lib, bu esa ijro ishi yuritish muddatlarining sun'iy cho'zilishi, ijro hujjatlarining bajarilmasdan qolishi hamda kreditorlarning qonuniy huquq va manfaatlarining yetarlicha himoya qilinmasligiga sabab bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ijro ishi yuritish tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks institutsional va huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar doirasida ijro organlari faoliyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, ijro jarayonida inson omilini kamaytirish, ijro harakatlarining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, ijro hujjatlarining samarali ijrosiga to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, ijro ishi yuritish sohasida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvini markazlashtirish ijro samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bu esa ijro jarayonida qarzdor shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning tarqoqligi, mulkiy holatni aniqlashdagi qiyinchiliklar hamda ijro harakatlarining sun'iy ravishda cho'zilishi kabi holatlarni bartaraf etish imkonini yaratdi.

Ana shu islohotlar natijasida ijro ishi yuritish tizimida zamonaviy huquqiy mexanizm sifatida **majburiyatlar reestri instituti** shakllandi. Ushbu institut qarzdorlarning moliyaviy, mulkiy va boshqa turdagi majburiyatlari haqidagi ma'lumotlarni yagona markazlashgan axborot bazasida jamlash orqali ijro hujjatlarining ijrosini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Majburiyatlar reestri ijro organlariga qarzdorning huquqiy va mulkiy holatini aniq baholash, unga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralarini maqsadli va mutanosib belgilash hamda ijro harakatlarini tezkor amalga oshirish imkonini beruvchi muhim huquqiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bir qator islohatlar natijasida O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 16 iyundagi **“O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”** O'RQ-1069-son qonuni bilan tadqiqot mavuimizni asosi bo'lgan majburiyatlar reestri O'zbekiston Respublikasining **“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida”**gi Qonuniga yangi **3²-bob** ya'ni **majburiyatlar reestri** sifatida kiritildi.

Mazkur bob ikki moddada 43³-43⁴-moddalardan iborat bo'lib, majburiyatlar reestrini yuritish tartibi va majburiyatlar reestridagi ijro hujjatlariga doir ma'lumotlarni saqlash va chiqarib tashlash tartibi hamda muddatlarini qamrab olgan⁷. "Mamlakatimiz ijro huquqi tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar, xususan, Majburiyatlar reestri institutining joriy etilishi sohada raqamli transformatsiyani boshlab bergan bo'lsa-da, mazkur institutni huquqiy va amaliy jihatdan mukammal deb bo'lmaydi.

⁷ Ўзбекистон Республикасининг “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги Қонуни 3²-боб, <https://lex.uz/docs/26477#7585729> (12.12.2025 йилда мурожаат қилинган)

Xususan, Qozog'istonda ushbu institut 2010 yil 2 aprelda qabul qilingan «Ijro ishi yuritish va sud ijrochilarining maqomi to'g'risida»gi Qonunga asosan joriy etilgan.

Qozog'iston tajribasida **“Avtomatik taqiqlar”** tizimi juda samarali ishlaydi. Masalan, qarzdor Reestrda kiritilishi bilan tizim avtomatik ravishda uning nomidagi barcha bank hisobvaraqlariga band soladi va bu haqda ijrochining aralashuvisiz xabar beradi. Shuningdek, Qozog'istonda reestr nafaqat ma'lumot beruvchi, balki **biznes-indikator** hisoblanadi: Reestrda bor shaxs davlat grantlarini ololmaydi va tenderlarda qatnasha olmaydi.

Bizning fikrimizcha, yurtimida ham Majburiyatlar reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning **davlat xaridlarida ishtirok etishini va davlat subsidiyalarini olishini** avtomatik tarzda cheklash mexanizmini yaratish va buni qonunchiligimizda aks ettirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu qarzdor tadbirkorlarni majburiyatni tezroq bajarishga undaydigan vosita sifatida xizmat qilar edi.

Qozog'istonlik huquqshunos olimlar mazkur qonunchilikda joriy qilingan institut “qarzdorlarning yagona reestri” haqida fikr yuritir ekan, ushbu institutni “Qarzdorlarning yagona reestri nafaqat ma'lumot yig'indisi, balki sud ijrochisining ishtirokisiz ishlaydigan “avtomatik jazolash” tizimidir. Bu ijro tizimidagi korrupsiyani minimallashtirishning eng samarali yo'lidir⁸.” deya ta'kidlaydi.

Biz ham mazkur konseptual yondashuvga to'liq qo'shilgan holda ta'kidlaymizki, Majburiyatlar reestri institutining izchil tatbiq etilishi ijro organi xodimlari va taraflar o'rtasidagi bevosita muloqotni minimallashtirish orqali ijro jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiogen omillarni bartaraf etishning eng samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, mazkur institutning ahamiyati faqatgina suiiste'molchiliklarning oldini olish bilan cheklanmay, balki u ijro ishi yuritishning **shaffofligini ta'minlash**, davlat ijrochisining ixtiyoriy va sub'ektiv qarorlar qabul qilish doirasini (discretionary powers) cheklash hamda ijro harakatlarini **avtomatlashtirilgan algoritmlar** asosida amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, ijro tizimiga nisbatan jamiyatda ishonchning ortishiga, qarzdorlikni undirish jarayonining tezkorligiga va davlat ijrochisining funksional vazifalarini faqatgina texnik ishlardan mazmunli-huquqiy tahlil darajasiga ko'tarishga zamin yaratadi

Biroq, bugungi kunda ushbu institutning huquqiy maqomida **moddiy va protsessual huquq normalarining o'zaro nomutanosibligi**, reestrda kiritish va undan chiqarish mexanizmlarida **inson omilining hamon saqlanib qolayotganligi**, shuningdek, qarzdorning shaxsiy ma'lumotlari daxlsizligi va jamiyat manfaati o'rtasidagi **huquqiy muvozanatning** (balance of interests) aniq qonuniy mezonlari belgilanmaganligi uning samaradorligini cheklab qo'ymoqda.

Majburiyatlar reestri institutining ijro hujjati ijrosini ta'minlashdagi roli xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, shuni alohida qayd etish lozimki, mazkur institut zamonaviy ijro huquqida "yuridik bosim" o'tkazishning eng samarali tizimiga aylandi. U ijro jarayonining an'anaviy bosqichlaridan farqli o'laroq, qarzdorning faqatgina mavjud mol-mulkiga emas, balki uning kelajakdagi iqtisodiy imkoniyatlari va huquqiy maqomiga ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

Birinchidan, Reestrning roli uning preventiv (oldini oluvchi) tabiatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning "qarzdor" sifatida ommaviy ro'yxatga tushishi uning ishbilarmonlik obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrarlighi, ijro hujjatini majburiy choralarda qo'llanilmasdan turib, ixtiyoriy bajarilishiga kuchli motivatsiya beradi.

⁸ Абдраимов Б.Ж. "Исполнительное производство: Учебник". – Нур-Султан, 2019 г. 121 ст.

Ikkinchidan, ushbu institut ijro ishi yuritishda "tarmoqlararo cheklovlar" zanjirini yaratadi. Ya'ni, Reestr ma'lumotlari bank, notarial idoralar, davlat xizmatlari va chegara nazorati organlari bilan integratsiya qilinganligi sababli, ijro hujjatining ijrosi davlat ijrochisining jismoniy harakatlariga emas, balki tizimli va avtomatlashtirilgan taqiqlarga tayanadi. Bu esa ijro jarayonining uzluksizligini va majburiyatning bajarilishi muqarrarligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, Majburiyatlar reestri kreditorlar manfaatlarini himoya qilishning axborot-huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi. U fuqarolik muomalasi ishtirokchilariga kontragentning huquqiy "tozaligini" tekshirish imkonini berish orqali, jamiyatda shartnomaviy intizomni mustahkamlaydi va kelajakdagi ijroga oid nizolarning kamayishiga bilvosita hissa qo'shadi.

O'zbekistonda ham Majburiyatlar reestri institutining to'liq ishlab ketishi natijasida kutilayotgan natijalar qatoriga ijro ishlarining "intellektuallashuvi"ni kiritish mumkin. Bunda ijrochi qarzdor orqasidan yurmaydi, balki reestrda "cheklovlar zanjiri" qarzdorni ijrochi huzuriga kelishga majbur qiladi.

Huquqiy asoslar nuqtai nazaridan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga hamda "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartishlar Reestrning legitimligini ta'minlaydi. Biroq, ilmiy doiralarda reestrda kiritish mezonlari bo'yicha hali ham bahsli qarashlar mavjud. Professor H. Musaevning fikricha, "Majburiyatlar reestriga kiritish faqatgina pul majburiyatlari bilan cheklanib qolmay, balki yuridik shaxslarning ijtimoiy va ekologik majburiyatlarini ham qamrab olishi kerak, bu esa davlatning nazorat funksiyasini yanada kuchaytiradi".

Shunga ko'ra, reestrning ijobiy jihatlaridan yana biri — jamiyatda "majburiyatlarni bajarish madaniyati" shakllanishidir.

Kutilayotgan istiqbolli natijalardan biri — reestr ma'lumotlarining bank-moliya tizimi bilan integratsiyalashuvidir. Bunda "kredit tarixi" va "ijro tarixi" tushunchalari bir-birini to'ldiradi. Agar shaxs Majburiyatlar reestrda bo'lsa, unga kredit berishni taqiqlash avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bu ijro intizomini mustahkamlashning eng samarali yachagidir. Olimlar D. Rustambekov va Sh.Azizovlarning qo'shma tadqiqotlarida qayd etilishicha, "Majburiyatlar reestri — bu nafaqat davlat majburlov chorasi, balki raqamli iqtisodiyot sharoitida fuqarolik muomalasi xavfsizligini ta'minlovchi yuridik texnologiyadir".

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda Majburiyatlar reestri institutining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan poydevori qo'yilgan bo'lib, u ijro tizimining samaradorligini oshirishda quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

1. **Sub'ektiv omilning kamayishi:** Reestrda kiritish va chiqarish jarayonining avtomatlashtirilishi korrupsiya xavfini kamaytiradi.
2. **Vaqt va resurs tejallishi:** Ijrochilarning minglab so'rovnomalar yuborishiga chek qo'yiladi, chunki reestr markazlashgan ma'lumot manbai sifatida xizmat qiladi.
3. **Ijtimoiy mas'uliyat:** Qarzdorning jamiyat oldidagi majburiyatlari ochiq ko'rinishi orqali insoflilik prinsipi mustahkamlanadi.

Ushbu institutning huquqiy tabiatini o'rganish dissertatsiya ishining markaziy qismini tashkil etishi lozim, chunki u moddiy va protsessual huquqning kesishuvida joylashgan yangi tipdagi yuridik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamasiddiqov M.M. "Fuqarolik protsessida ijro ishi yuritishning nazariy va amaliy muammolari". DSc dissertatsiyasi. Toshkent, 2018.
2. Gureev V.A. "Ispolnitelnoe proizvodstvo", Uchebnik, Moskva 2022 g.
3. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni 3²-bob, <https://lex.uz/docs/26477#7585729> (12.12.2025 yilda murojaat qilingan)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/4236722> (12.12.2025 yilda murojaat qilingan)
5. Deguchi M. "Comparative Legal Perspective on the Effective Enforcement of Creditors' Rights" Comparative Procedural Law and Justice Part XIII – Enforcement Chapter 2. August 2024.
6. Chardon M. The CEPEJ Guidelines on Enforcement. 1 er Forum mondial sur l'exécution – 1 st Global Forum on Enforcement - Strasbourg – 10 Dec. 2014
7. Abdraimov B.J. "Ispolnitelnoe proizvodstvo: Uchebnik". – Nur-Sultan, 2019